



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SUG'DLIK LARNING ELCHILIK ALOQALARI BORASIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Muxamedov Yakubdjani Kadirovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, dotsent

Annotatsiya

Maqolada ilk o'rta asrlar davrida Sug'dliklarning xalqaro munosabatlardagi maqomi manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yoritilgan. G'arbiy Turk xoqonligi nomidan elchilik aloqalarini olib borish imtiyozlariga ega bo'lishi natijasida Sug'dliklarning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishiga sabab bo'lganligi tadqiqotchilarning ilmiy xulosalariga tayangan holda asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sug'd, elchi, turklar, Chag'anyon, Afrosiyob, Turontosh, panch, Kan, draxm, Choch, Ustrushona, Tang, Suy, Varxuman, Xu.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЯХ СОГДИЙЦЕВ

Мухамедов Якубджан Кадырович

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент

Аннотация

В статье на основе сравнительного анализа источников освещается положение согдийцев в международных отношениях раннего средневековья. Исследование опирается на научные выводы исследователей о том, что обладание привилегиями ведения дипломатических отношений от имени Западнотюркского каганата способствовало экономическому и культурному подъему согдийцев.

Ключевые слова: согд, посол, тюрки, Чаганьян, Афросиаб, Туронтош, панч, Кан, драхма, Чач, Уструшана, Тан, Суй, Вархуман, Сюй.

SOME REFLECTIONS ON THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE SOGDIA NS

Muxamedov Yakubdjani Kadirovich

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Associate Professor

Abstract

The article highlights the position of the Sogdians in international relations during the early medieval period based on a comparative analysis of information presented in historical sources. The study, relying on scholarly conclusions, demonstrates that their privilege of conducting diplomatic relations on behalf of the Western Turkic Khaganate contributed to their economic and cultural development.

Keywords: Sogd, envoy, Turks, Chaganian, Afrasiab, Turontosh, panch, Kan, drachma, Chach, Ustrushona, Tang, Sui, Varhuman, Xu.

G'arbiy Turk xoqonligi davrida sug'dliklarning xalqaro maqomi, ularning diplomatik aloqalardagi faol ishtiroki va mintaqalararo siyosiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'rni masalasi tarixshunoslikda muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Sug'dliklar qadimdan Buyuk ipak yo'li bo'ylab savdo-sotiq, vositachilik, madaniy almashinuv va diplomatik munosabatlarda faol qatnashgan xalq sifatida tanilgan. Ayniqsa, G'arbiy Turk xoqonligi davrida ularning mavqeyi yanada kuchayib, sug'd savdogarlari, elchilari va tarjimonlari xoqonlikning tashqi siyosiy aloqalarida muhim vositachi kuch sifatida namoyon bo'lgan.

Mazkur davrda Sug'd shaharlari nafaqat iqtisodiy markazlar, balki xalqaro siyosiy va madaniy aloqalarning muhim tayanch nuqtalari sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. Sug'dliklarning turklar, xitoyliklar, eroniylar, vizantiyaliklar hamda boshqa xalqlar bilan olib borgan aloqalari ularning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilab bergan. Xususan, ular turli davlatlar o'rtasida savdo karvonlarini tashkil etish, diplomatik xabarlarini yetkazish, muzokaralarda vositachilik qilish va madaniy axborot almashinuvini ta'minlashda alohida o'rin tutgan. Shu jihatdan sug'dliklar G'arbiy Turk xoqonligining tashqi siyosatida faqat iqtisodiy qatlam vakillari emas, balki muayyan diplomatik vazifalarni bajargan ijtimoiy-siyosiy guruh sifatida ham baholanishi mumkin.

Garchi sug'dliklarning xalqaro aloqalardagi faoliyati haqida xitoy yilnomalari, arab-fors manbalari, sug'd yozma yodgorliklari, numizmatik va arxeologik materiallarda muayyan ma'lumotlar uchrasa-da, bu masalaning barcha jihatlarini yetarlicha o'rganilgan deb bo'lmaydi. Manbalardagi

ma'lumotlarning parchalanganligi, ularning turli siyosiy va madaniy muhitda yaratilgani, ayrim xabarlarining bir-biriga zid talqin qilinishi ushbu mavzuni chuqur va kompleks tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sug'dliklarning G'arbiy Turk xoqonligi tarkibidagi siyosiy maqomi, ularning xoqonlik diplomatiyasidagi real vakolatlar, xalqaro savdo va siyosiy muzokaralar o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, sug'd elitalarining turkiy hukmdorlar bilan munosabatlari masalasi alohida ilmiy izlanishni talab etadi.

Bugungi kunda G'arbiy Turk xoqonligi davridagi sug'dliklarning xalqaro maqomini o'rganish nafaqat mintaqa tarixini chuqurroq anglash, balki Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlardagi geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi o'rnini aniqlash uchun ham muhimdir. Mazkur masala Buyuk ipak yo'li tarixini, turkiy-sug'd munosabatlarini, qadimgi diplomatiya an'analari hamda xalqlararo madaniy aloqalar tarixini yoritishda katta ilmiy ahamiyatga ega. Shu sababli G'arbiy Turk xoqonligi davrida sug'dliklarning diplomatik faoliyati, xalqaro munosabatlardagi vositachilik roli va siyosiy maqomini manbalar asosida keng qamrovli tahlil qilish bugungi tarixshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ilk o'rta asrlarda xalqaro munosabatlarni tadqiq qilishda sug'dliklar tomonidan olib borilgan elchilik aloqalari alohida ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Bu mavzu borasida hozirgi kunga kelib ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq dolzarb mavzuligicha qolib kelmoqda. Mazkur masalani yoritishda Mug'tog'i va Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlaridagi qabul marosimlarida aks etgan tasvirlar muhim manba hisoblanadi.

Sug'dliklar nafaqat mohir savdogar, balki diplomat sifatida ham nom qozonganliklari tarixdan ma'lum. Sug'dliklar diplomatiyasi bo'yicha ma'lumotlar yozma manbalarda (xitoy, arab, fors, vizantiya), arxeologik materiallarda (epigrafik va numizmatik), sayohatchilarning kundaliklarida ham qimmatli ma'lumotlar sifatida keltirilgan. Ushbu manbalar ichida devoriy suratlarda aks etgan tasvirlarning salmog'i yuqoridir.

Afrosiyob devoriy suratlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan L. I. Albaum, A. M. Beleniskiy, B. I. Marshak, N. Ya. Bichurin, V. V. Bartold, E. Chavannes, F. Grene, E. de la Vaissière, A. Ataxodjayev, B. G'oibov, G'. Boboyorovlar ilk o'rta asrlar davri ichki va tashqi munosabatlar diplomatiyasi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilishda mazkur materiallarga o'z e'tiborlarini qaratganlar.

Ushbu masala bo'yicha fransuz sug'dshunosi E. de la Vaissièrening sug'dlar tarixiga doir asarida sug'dliklarning savdo-sotiqdagi va elchilik aloqalaridagi faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan [1]. Arab manbalarida Devashnichning Farg'ona, Choch, Turk xoqonligi o'rtasidagi tashqi aloqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan [2]. Ilk o'rta asrlarda Sug'ddan Xitoyga to'qqiz marotaba elchilar tashrif buyurgan [3]. Mazkur ma'lumotlardan shuni anglash lozimki, Sug'd Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida mustaqil tashqi siyosat olib borish huquqiga ega konfederatsiyalardan biri ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

Tadqiqotchi Ye. Lubo-Lesnichenko G'arbiy Turk xoqonligining Xitoy bilan tashqi aloqalari deb nomlangan asarida sug'dliklarning xalqaro maqomi haqida ham ma'lumotlar qayd etilgan bo'lsa [4], V. V. Bartold o'z ilmiy tadqiqotlari davomida sug'dliklarning xalqaro savdodagi roli va ularning provensiyalari bo'yicha ma'lumotlar keltirgan [5]. Fransuz sug'dshunosi E. de la Vaissièrening sug'dlar tarixiga doir asarida sug'dlarning savdo-sotiqdagi va elchilik aloqalaridagi faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan [6]. Arab manbalarida Devashnichning Farg'ona, Choch, Turk xoqonligi o'rtasidagi tashqi aloqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan [7]. Ilk o'rta asrlarda Sug'ddan Xitoyga to'qqiz marotaba elchilar tashrif buyurgan [8]. Mazkur ma'lumotlardan shuni anglash lozimki, Sug'd Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida mustaqil tashqi siyosat olib borish huquqiga ega konfederatsiyalardan biri ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

Ilk o'rta asrlarda sug'dliklar Kaspiy dengizidan Tinch okeani orqali Yevrosiyoga qadar hudud sarhadlarida buyuk tamaddun egalari bo'lgan [9]. Ma'lumki, sug'dliklar G'arbiy Turk xoqonligi nomidan xalqaro savdo va elchilik aloqalari olib borish imtiyozlariga ega bo'lganlar.

Sug'dliklar xalqaro maydonda eng xaridorgir mahsulotlardan tortib, boshqa davlatlarda, xususan, Xitoyning mashhur ipaklari va turli-tuman mahsulotlarni, qimmatbaho buyumlarni ham G'arb dunyosiga tarqatishda faol qatnashganlar. Ipak mahsulotlarini tayyorlash Sug'dda ham amalga oshirilgan bo'lib, uning qiymati Xitoynikidan qolishmagan. Sug'dliklarda gilam mahsulotlari ham juda mashhur bo'lib, Sharqiy Turkiston va Xitoyda eng talab yuqori mahsulotlardan biri bo'lgan [10]. Sug'dliklar nafaqat ipak, gilam yoki qimmatbaho mahsulotlar bilan savdo qilganlar, balki charm mahsulotlariga ham alohida e'tibor qaratib, charm mahsulotlaridan turli poyabzallar, oq kigizdan tayyorlangan qalpoqlar savdosida yetakchilik qilganlar. Sug'dliklar charm mahsulotlarini ko'chmanchilardan xarid qilib, tayyor mahsulot sifatida yana ularga sotganligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan [11].

G'arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o'rtasidagi elchilik aloqalarida asosiy elchilik vazifasini sug'dliklar bajargan bo'lib, jumladan, Xitoyning Tang sulolasi bilan olib borilgan diplomatik aloqalarda elchi sifatida asosiy o'rinda turganliklari keltirilgan [12]. Turklarning Xitoy bilan aloqalarida sug'dliklarning vazifasi alohida o'ringa ega bo'lib, sug'dliklarning nafaqat iqtisodiy mavqeyi oshib borgan, balki mazkur davrda ularning siyosiy nufuzi ham katta o'rinda turgan. Bunga sabab esa sug'dliklarning diplomatik munosabatlarda faol ishtirok etishi va turklarning iqtisodiy tayanchi bilan asoslash mumkin [13].

Ilk o'rta asrlar xalqaro munosabatlarni tadqiq qilishda sug'dliklar tomonidan olib borilgan elchilik aloqalarini yoritishda Mug' tog'i va Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlaridagi qabul marosimlarida aks etgan tasvirlarning ilmiy manbadagi ahamiyati katta.

Manzilgoh izlari dastlab 1913-yilda olim V. L. Vyatkin tomonidan aniqlangan. Devoriy suratlariga nazar tashlar ekansiz, o'zgacha manzaraga guvoh bo'lish mumkin. Xususan, ilk o'rta asrlarda xalqaro munosabatlarga doir sug'd hukmdori Varxuman huzuriga tashrif buyurgan qo'shni davlatlarning elchilari tashrifi borasidagi ma'lumotlar katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlari ustida uzoq yillar davomida ilmiy izlanishlar olib borayotgan B. G'oibov "Sug'dda elchilik munosabatlari" mavzusidagi maqolasida bevosita Sug'd hududida bo'lgan elchilar haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirib o'tgan [14]. Mazkur devoriy suratda VII asrda Sug'd hududiga kelgan Chag'oniyon hukmdori Turontosh "twrn'ts" elchisining tashrifi xususida so'z boradi. Uning tashrifi xususida devoriy suratda shohona chakmon kiyib olgan ikki shaxs tasviri aks etgan bo'lib, ularning birining chakmoni ostida o'n olti qatordan iborat bo'lgan vertikal shakldagi yozuv saqlanib qolgan. Ushbu matnni sug'dshunos olim V. A. Livshis o'qishga muvaffaq bo'lgan [15]. Livshis Turontoshni eroniy asosda Battle-ax of Turanians — "Turonliklarning jangovar boltasi" deb izohlaydi [16]. Chag'oniyon boshqaruvchi sulola vakillari turkiy ekanligi haqida ham ba'zi xulosalar keltirilgan. Xususan, arab tarixchisi At-Tabariy ular Shod unvonidagi turkiylar bo'lganligini qayd etadi [17]. Keyinchalik amerikalik olim G. Xibb ham uning Shod unvoni va turkiy ekanligi haqida Tabariyning ma'lumotlariga ko'ra xulosa bergan [18]. Shuningdek, Turontosh tomonidan yuborilgan elchi Dapirpat Bukarzatning sovg'a-salomlar (asosan tuyaqushlar) ila tashrif buyurganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chag'oniyon elchisining ismi va unvoni borasida quyidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "Chag'oniyon elchilari boshlig'i kanselyariya devonxona" boshlig'i deya talqin qilinib, sug'diy hujjatlarga ko'ra, bosh kotib devonxona boshlig'i vazifasini bajarganligi ma'lum bo'ladi. Bu borada B. G'oibov Dapirapat bu — devon boshlig'i bo'lishi bilan birga, saroydagi hujjatlarni tartibga solish va yuritish, shuningdek, bu lavozim egasi nafaqat devonxona boshlig'i, balki elchi-chopar vazifasini bajaruvchi mansab egasi ekanligini keltirib o'tgan [19].

Ilk o'rta asrlarda sug'dliklar Buyuk ipak yo'lida savdo qilish bilan birga uning ikki tarmog'ida — janubiy va shimoliy yo'nalishlarni nazorat qilish imtiyozlariga ega bo'lganlar. Sug'dliklar o'z farzandlarini yoshligidan boshlab savdo uchun maxsus tayyorlab borganlar. Jumladan, amerikalik olim Lerner xitoyliklarda bir naql haqida quyidagilarni bayon qilib o'tgan: "Sug'd bolasi dunyoga kelsa, uning onasi tili shirin, nutqi esa ravon bo'lishi uchun tiliga asal surkab qo'ygan bo'lsa, qo'lida doimo boy bo'lsin degan niyatda kaftiga pul qo'yganlar" [20]. Bu holatda sug'dliklar o'z farzandlariga yoshligidan boshlab savdo ishlarining sir-sinoatlarini o'rgatib, tayyorlab borganliklari ma'lum bo'ladi.

Sug'dliklarning Xitoy imperiyasi o'rtasidagi savdo aloqalarini o'rnatilishiga doir ma'lumotlar xitoy tarixchisi Xou Jen-chjining qaydnomalarida quyidagicha bayon qilingan: Xitoy "to'lov yo'q — savdo yo'q, to'lov bor — savdo bor" siyosatini yuritgan [21]. Sug'dliklarning Xitoy bilan aloqalarni o'rnatishi oson kechmaganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Sug'dliklar nafaqat ichki savdo munosabatlarida yetakchi o'ringa ega bo'lgan, balki xorij davlatlarida ularning mahsulotlariga talab yuqori darajada bo'lgan. Bu borada Xitoy manbalarida sug'dliklarning qishloq xo'jalik mahsulotlari va hunarmandchilikda yaratgan qurol-aslahalari haqida ta'riflar keltirilgan. Sug'd hududi tabiati juda xilma-xildir, hudud yerlari dehqonchilik va bog'dorchilik qilish uchun juda qulay mintaqa hisoblangan. Xalqaro savdo munosabatlarida ularning bog'dorchilik mahsulotlaridan shaftoli va gilos, uzumchilikda mayiz yetishtirishda mohir mirishkorlar bo'lganligi qayd etiladi.

Yilqichilikda zotdor otlarning eng saralarini tayyorlashda va eksport qilishda ularning oldiga tushadigan savdogarlar bo'lmagan. Ipak savdosida hatto Xitoy ham dog'da qoldira olishganligi manbalarda tilga olib o'tilgan. Ushbu xomashyo xalqaro savdoda yirik davlatlar manfaatini yuzaga keltirgan bo'lsa, turklar bilan hamkorlik qilishda katta imtiyozlar olinishi ushbu mahsulotlarni eksport

qilish imkoniyatini yaratib bergan.

Gʻarbiy Turk xoqonligining moliyaviy markazlaridan biri boʻlgan Sugʻd koʻplab savdogarlari bilan mashhur boʻlgan, balki hunarmandchilik ham yuksak darajada rivoj topgan. Sugʻdliklar savdo-sotiqni olib borishda pulning ahamiyati katta boʻlgan. Jumladan, Sugʻdda oltin tanga boʻlmagan, asosan kumush tangalardan foydalanganlar. Sugʻdda zarb qilingan tangalar $\delta r x m y$ — $d r a x m$ yoki $d r a x m a$ deyilgan [22]. Draxmlar dastlab ogʻirlik oʻlchov birligi sifatida ishlatilgan, 1 draxm 4 gr kumushga teng boʻlgan [23]. Sugʻd hududidan kumush tangalar deyarli topilmagan. Samarqand hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalar turk xoqonlari tangalariga shaklan oʻxshash boʻlgan [24].

M. Isʼhoqov va B. Gʻoibovlar Sugʻd haqida quyidagicha maʼlumotlarni keltirib oʻtganlar: Sugʻd oʻtroq madaniyat hukmronlik qilgan mintaqa boʻlib, ushbu hududlar esa turkiy qabilalar taʼsiri ostida boʻlgan [25]. Bu esa Sugʻd va Ustrushona oʻrtasida oraliq hududlarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Sugʻd koʻpgina davlat va imperiyalarni oʻzaro tutashtiruvchi Ipak yoʻli boʻyida joylashgan, Sharq va Gʻarb davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari uchun koʻprik vazifasini oʻtagan. Sugʻd ixshidi xorijiy mamlakatlarga elchilar yuborish, boshqa davlatlar elchilarini qabul qilish huquqiga ega boʻlgan. Xususan, “Tan shu” yilnomasida qayd qilinishicha: “Kan aholisi sher hadya qilish uchun yana bir elchilik hayʼati yubordi. Imperator orasidagi masofaning olisligi sovgʻaning qiymatini yanada ortishini tahlil asosida, arxiv mudiri Yu Shenanga shu sababdan sheʼr yozishini buyurdi. Mazkur vaqtdan boshlab har yili Kandan elchi hadiyalar bilan keladigan boʻldi. Sariq va oq olchalar olib kelishardi, imperator bogʻga ekishni buyurdi. Yun-vey [Yun-xuy] davrida (imperator) Gao-szun mamlakat (Kan hukmdorligi)ning nomini Kangyuy gubernatorligi deb oʻzgartirdi va Foxuman (Avarxuman) hukmdor qilib qoʻyildi. ... Kay-yuan hukmronligi (713–741)ning boshlarida (Xitoy) saroyiga oʻrilgan gazlama matolar, sof billurdan qadah, aqiqqa xos koʻza, tuyaqush tuxumi, yuen pakanasini va Xu (sugʻdiy) raqqosalarni yuborildi” [27].

Gʻarbiy Turk xoqonligi tarkibida boʻlgan sugʻdliklar xoqonlikning iqtisodiy taʼminotini belgilab beruvchi hudud hisoblangan. Ular boshqa vassal hududlar bilan qiyoslanganda, oʻz ichki mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq boʻlganligi sababli madaniy hayotida sezilarli oʻzgarishlar sodir boʻlmaganligini kuzatishimiz mumkin [28]. Sugʻd tilidagi hujjatlarni lingvistik jihatdan tadqiq qilgan olim V. A. Livshis Gʻarbiy Turk xoqonligining Sugʻd boshqaruvida bevosita ishtiroki hamda uning Panch bilan oʻzaro aloqalariga oʻz munosabatini bildirib oʻtgan [29].

Sugʻdliklarning Xitoy bilan dastlabki aloqalari miloddan avvalgi III asrda oʻrnatilgan [30]. Sugʻdliklarning Xitoy bilan oʻzaro aloqalarni olib borishi borasidagi masalalar asosan ularning Sharqqa koʻchishi bilan bogʻliq yoʻqdek tuyulsa-da, bu borada sugʻdlarning yozuvi va madaniyati bilan bevosita shugʻullanib kelgan olim A. Steynning sugʻdiy “Eski xatlar” turkumiga kiruvchi hujjatlariga muvofiq asoslash mumkin [31].

Arxeologik maʼlumotlar shuni anglatadiki, ipak matolar Sugʻdda, Fargʻonada, Buxoroda va Tarim daryosi havzalarida ishlab chiqarilgan [32]. Sugʻdliklarning ipak matolari Xitoy bozorlariga qadar kirib borgan. Chorvador aholi esa jun mahsulotlari bilan savdo olib borgan. Mazkur davrda ipak va jun mahsulotlari nafaqat Xitoy bozorlarida, balki Eron va Vizantiya bozorlariga ham kirib borib, eng xaridorgir mahsulotlar sifatida keltirilgan [33].

Xulosa. Sugʻdliklarning xalqaro savdo aloqalaridagi va diplomatik munosabatlardagi faol ishtiroki ularning xalqaro mavqeyi yuksalishiga sabab boʻlgan. Gʻarbiy Turk xoqonligi davrida tashqi munosabatlar olib borishda elchilik aloqalarida sugʻdliklar savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun imtiyozlarga ega boʻlganlar. Sugʻdliklar boshqa hukmdorliklar singari mustaqil ravishda qoʻshni hududlarga elchilar yuborish, tanga zarb qilish va xalqaro bozorda savdo qilish huquqlariga ega ekanligi ularning xalqaro maqomini yanada yuksaltirish uchun zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Vaissière É. de la. *Sogdian traders: a history / translated by J. Ward.* – Leiden–Boston: Brill, 2005. – P. 197–260.
2. *Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий.* – Вып. II: Юридические документы и письма / чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – С. 91–94.
3. Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN, Южной и Северной династий // *Согдийский сборник.* – Вып. 4. – Lambert Academic Publishing, 2017. – С. 59.
4. Лубо-Лесниченко Е. И. *Китай на Шелковом пути. Шелк и внешние связи древнего и раннесредневекового Китая.* – М., 1994.
5. Бартольд В. В. *О христианстве в Туркестане в домонгольский период // Сочинения.* – Т. 2, ч. 2.

- М., 1964.
6. Мирбобоева Т. Х. Вклад Согда и согдийцев в Великий шелковый путь: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Худжанд, 2005.
 7. Vaissière É. de la. *Sogdian traders: a history* / translated by J. Ward. – Leiden–Boston: Brill, 2005. – P. 197–260.
 8. Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN, Южной и Северной династий // Согдийский сборник. – Вып. 4. – Lambert Academic Publishing, 2017. – С. 59.
 9. Хансен В. Великий шелковый путь. Портовые маршруты через Среднюю Азию: Китай–Согдиана–Персия–Левант. – М., 2014. – 477 с.
 10. Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – С. 102.
 11. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. – М., 1981. – С. 148, 267.
 12. Кляшторный С. Г. Согдийцы в Центральной Азии (по руническим текстам). – С. 29–31.
 13. Кобзева О. П. Великий шелковый путь: история и современность. – С. 28.
 14. Кляшторный С. Г. История Центральной Азии. – С. 160–166.
 15. Ғойбов В. Sug‘dda elchilik munosabatlarining ba’zi xususiyatlariga doir // O‘zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. – Toshkent, 2016. – B. 29–42.
 16. Лившиц В. А. Надписи на фресках из Афрасиаба // тезисы докладов сессии. – Л., 1965.
 17. История ат-Табари / пер. с араб. В. Беляева. – Ташкент, 1987. – С. 124–400.
 18. Gibb H. A. O‘rta Osiyoda arab futuhoti / tarj. M. Nakki. – Istanbul, 1930. – S. 10.
 19. Ғойбов В. Sug‘dda elchilik munosabatlarining ba’zi xususiyatlariga doir // O‘zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. – Toshkent, 2016. – B. 32.
 20. Xususiyatlari – Ipak yo‘lining uyg‘onishi // Arxeologiya jurnali. – 2020.
 21. Кляшторный С. Г. Древнетюркская письменность и культура Центральной Азии // ТС. – 1972. – М.: Наука, 1973. – С. 256.
 22. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика. – С. 38–39.
 23. Ғойбов В. Sug‘d konfederatsiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli. – Samarqand, 2017. – B. 117.
 24. Смирнова О. И. Сводный каталог согдийских монет. – С. 21.
 25. Ғойбов В. Sug‘d konfederatsiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli. – Samarqand, 2017. – B. 93.
 26. Авархуман – Самарканд хукмдори (650–670 йиллар), Афросиёб ёзувларида ва суғд тангаларида қайд этилган.
 27. Бичурин Н. Я. Собрание сведений. – Т. 2. – М.–Л., 1950. – С. 311–318.
 28. Маликов А. М. Этнокультурные процессы в Согде в эпоху раннего средневековья // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 2008. – № 36. – С. 128.
 29. Лившиц В. А. Согдийский посол в Чаче // СЭ. – 1960. – № 2. – С. 34–51.
 30. Ғойбов В. Sug‘d konfederatsiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli. – Samarqand, 2017. – B. 36.
 31. Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – С. 102.
 32. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. – М., 1981. – С. 148, 267.
 33. Лившиц В. А., Хромов А. Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. – М., 1981. – С. 347–348.
 34. Ртвеладзе Э. В. Самарканд на Великом шелковом пути // Материалы международного симпозиума. – Ташкент–Самарканд, 2007. – С. 110.
 35. Кляшторный С. Г. Древнетюркская письменность и культура Центральной Азии // ТС. – 1972. – М.: Наука, 1973. – С. 256.
 36. Пигулевская Н. В. Византия на путях в Индию. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1951. – С. 73.